

5 office Yangiobod street. Fergana. Uzbekistan. 150100.  
Tel. (91) 651 80 13 (0373) 241 64 48. (99) 851-80-13 Web sayt: [ttt-audit.uz](http://ttt-audit.uz) E.mail: [tttaudit@mail.ru](mailto:tttaudit@mail.ru)  
**The license AF № 00773 issued by Ministry of Finance from 2019.04.05.**

**Mustaqil auditorlik xulosa № 09**  
**(Moliyaviy hisobot auditi natijalari bo'yicha xulosa)**

**«O'ZKIMYOSANOATLOYIHA» AJ**  
**kuzatuv kengashiga**

**Sana: 27-fevral 2023 yil**

**Fikr**

Bizning fikrimizcha «O'ZKIMYOSANOATLOYIHA» aksiyadorlik jamiyatning 2022 yil 31 dekabrga bo'lgan moliyaviy holatini, ko'rsatilgan sanada tugagan yil mobaynida uning moliyaviy natijalarini va pul oqimlari harakatini barcha muhim jihatlarda Moliyaviy hisobotning milliy standartlariga muvofiq haqqoniy taqdim etadi.

Biz jamiyatning 2022 yil 31 dekabr holatiga bo'lgan "Moliyaviy holat to'g'risida"gi hisoboti, ko'rsatilgan sanada tugagan yil mobaynida "Foyda va zararlar to'g'risida"gi hisoboti, "Xususiy kapital"dagi o'zgarishlar to'g'risidagi hisoboti, "Pul oqimlari to'g'risida"gi hisoboti, shuningdek "Hisob siyosati"ni ahamiyatli qoidalarining qisqacha tavsifi va boshqa izohlovchi ma'lumotlardan iborat bo'lgan ilova qilinayotgan moliyaviy hisobotlari auditini o'tkazdik.

**Fikr bildirish uchun asoslar**

Biz Auditning xalqaro standartlariga (AXS-700) ga muvofiq audit o'tkazdik. Bizning ushbu standartlar bo'yicha javobgarligimiz ushbu xulosaning "Auditning moliyaviy hisobotni tekshiruvini bo'yicha javobgarligi" bo'limida batafsil yoritilgan. Biz jamiyatdan mustaqil ravishda Buxgalterlar uchun xalqaro axloq standartlari Kengashining (BXASK) "Professional buxgalterlar uchun axloq" Kodeksi talablariga va axloqiy qoidalariga, moliyaviy hisobot auditiga tegishli, hamda ushbu talablarga va BXASK Kodeksda belgilangan boshqa majburiyatlarni bajarganmiz. Biz olgan auditorlik dalillari fikrimizni ifoda etilishini tasdiqlash uchun yetarli va o'rinli deb hisoblaymiz.


**Auditning muhim masalalari**

Auditning muhim masalalari - ushbu masalalar, bizning professional mulohazamizdan kelib chiqqan holda joriy davr uchun moliyaviy hisobotni tekshirish uchun eng muhim bo'lgan masalalardir. Ushbu masalalar moliyaviy hisobot auditida ko'rib chiqilgan va biz ushbu masalalar bo'yicha alohida fikr bildirmaymiz.

**Moliyaviy hisobot uchun rahbariyat va korporativ boshqaruv vakolatiga ega shaxslarning javobgarligi.**

Rahbariyat moliyaviy hisobotni tayyorlash va to'g'ri taqdim etish uchun, MHXS ga muvofiq firibgarlik va xatolik tufayli jiddiy buzib ko'rsatilgan moliyaviy hisobotlarni tayyorlaganlik uchun, hamda rahbariyat tomonidan qabul qilingan ichki nazorat tizimi uchun javobgar.

Moliyaviy hisobotni tayyorlashda rahbariyat jamiyat faoliyatining uzluksizligini baholashga, zarur hollarda uzluksiz faoliyat bilan bog'lik bo'lgan axborotlarni oshkor etish va faoliyat uzluksizligi taxminiga ko'ra hisobot berishga javobgar, agarda rahbariyat tomonidan jamiyat faoliyatini tugatish, faoliyatni to'xtatish yoki boshqa holatlar mavjud bo'lmasa. Korporativ boshqaruv uchun mas'ul shaxslar jamiyatning moliyaviy hisobotlarini tayyorlashni nazorat qilish uchun javobgardir.



### **Moliyaviy hisobot auditi uchun auditorning javobgarligi**

Bizning maqsadimiz moliyaviy hisobotlar firibgarlik va xatolik tufayli bo'ladigan jiddiy noto'g'ri ko'rsatkichlardan holi ekanligiga ishonch hosil qilish, hamda auditorlik fikrini auditorlik xulosasida aks ettirish. Aqlli ishonch, ishonchning yuqori darajasi bo'lib, AXSlarga muvofiq o'tkazilgan audit har doim ham mavjud jiddiy xatolarni aniqlay olishga kafolatli emas. Firibgarlik yoki xatolik tufayli buzib ko'rsatishlar yuzaga kelishi mumkin, ushbu buzib ko'rsatishlar yagona yoki jami bo'lib moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar iqtisodiy qarorlariga ta'sir qilishi mumkin bo'lsa, muhim hisoblanadi.

Auditning xalqaro standartlariga muvofiq auditning bir qismi sifatida biz butun audit davomida professional mulohaza yuritamiz va professional skeptisizmni qo'llaymiz. Bundan tashqari biz quyidagilarni bajaramiz:

- firibgarlik yoki xatolik tufayli moliyaviy hisobotning jiddiy buzilishi xatarini aniqlash va baholash, ushbu xatarlarga javoban auditorlik amallarini ishlab chiqamiz va bajaramiz, audit fikri uchun asos bo'lib xizmat qiladigan auditorlik dalillarini olamiz. Firibgarlik natijasida muhim buzib ko'rsatishlarni topilmaslik riski xato tufayli muhim buzib ko'rsatishlarni topilmaslik riskidan yuqori, chunki firibgar soxtalashtirish, qasddan xato qilish, noto'g'ri ma'lumot berish yoki ichki nazorat tizimini chetlab o'tuvchi xatti-harakatlarni amalga oshirgan bo'lishi mumkin;
- jamiyatning ichki nazorat tizimining samaradorligi to'g'risida o'z fikrimizni bildirish uchun emas, balki vaziyatga mos keladigan auditorlik tartib-taomillarini ishlab chiqish maqsadida, auditor tadbirkorlik subyekti o'z moliyaviy hisobotlarini tayyorlashi va haqqoniy taqdim etishi bilan bog'liq bo'lgan ichki nazorat tizimini ko'rib chiqadi;
- qo'llanilayotgan hisob siyosatining maqbulligi va tadbirkorlik subyekti rahbariyati tomonidan hisoblab chiqilgan baholarning asoslilikini baholashni, shuningdek moliyaviy hisobotlarning ifodalanishini baholash;
- buxgalteriya hisobi va boshqaruvdan olingan auditorlik dalillari asosida, jamiyatning faoliyatni uzluksiz davom ettirish qobiliyatiga jiddiy shubha tug'dirishi mumkin bo'lgan voqealar va hodisalar bilan bog'lik muhim noaniqliklar mavjudmi yoki yo'qligi to'g'risida, rahbariyat foydalanishi maqsadga muvofiqligi to'g'risida xulosa qilamiz. Agar biz muhim noaniqliklar mavjud degan xulosaga kelsak, audit hisobotida moliyaviy hisobotdagi noaniqliklarni yoritib berishga e'tiborimizni qaratamiz yoki noaniqliklarni yoritib berish imkoni bo'lmasa audit fikrini o'zgartiramiz. Bizning audit xulosamiz olingan auditorlik dalillariga asoslanadi. Kelajakdagi voqea va hodisalar jamiyat faoliyatining uzluksizligiga ta'sir etishi mumkin.
- biz moliyaviy hisobotning taqdim etilishini, uning tuzilishi va tarkibini, shu jumladan ma'lumotlarning oshkor qilinishini va moliyaviy hisobot asosiy operatsiyalar hamda hodisalarni ishonchli tarzda taqdim etishini baholaymiz.

Biz Korporativ boshqaruv uchun mas'ul shaxslar bilan auditni rejalashtirish, audit o'tkazish vaqti va auditda aniqlangan muhim kamchiliklar, shu jumladan audit davomida aniqlangan ichki nazoratdagi har qanday kamchiliklar to'g'risida aloqa qilamiz.

Biz shuningdek «O'ZKIMYOSANOATLOYIHA» aksiyadorlik jamiyatining Korporativ boshqaruvi uchun mas'ul shaxslarga auditning mustaqilligiga tegishli barcha axloqiy talablarga rioya qilinganligi to'g'risida bayonot beramiz va ushbu shaxslarga auditning mustaqilligiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan barcha munosabat va masalalar to'g'risida xabar beramiz.

Biz Korporativ boshqaruv uchun mas'ul shaxslarga xabar qilingan masalalardan joriy davr moliyaviy hisoboti auditida eng muhim va auditning asosiy masalalarini aniqlaymiz. Biz ushbu auditning asosiy masalalarini audit hisobotimizda yoritamiz. Ushbu masalalar to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor qilinishi qonun yoki boshqa hujjatlar bilan ta'qiqlangan hollar bundan mustasno,

yoki biz kamdan-kam hollarda ushbu masalalarni oshkor qilmaslik kerak degan xulosaga kelamiz.  
Chunki bunday axborotning salbiy oqibatlari ijobiy oqibatidan oshadi deb taxmin qilish mumkin.

Ma'suliyati cheklangan jamiyat shaklidagi  
"TTT-AUDIT" auditorlik tashkiloti  
bosh direktori, bosh auditor CAP

Bosh auditor



*M.X. Botirov*  
*S.G. Xojakborov*

M.X.Botirov

S.G.Xojakborov

(Auditor malaka sertifikatini № 05052  
Moliya Vazirligidan 25.08.2012 yilda berilgan)